

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

VERTIKAL MAKON VA QAHRAMON ICHKI DUNYOSINING EKZISTENSIAL MOHIYATI

Nigina Ibragim qizi YAXYAYEVA,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: n.i.yaxyayeva@buxdu.uz

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15292236>

Annotatsiya. Tadqiqotimizdan ko‘zlangan asosiy maqsad – adabiyotshunoslikdagi badiiy makon tushunchasiga murojaat qilgan holda, uning vertikal turiga izoh berib, ushbu vertikal makonni Ernest Heminguey qissalari misolida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotimiz doirasida biz vertikal makon va qahramon ichki dunyosining ekzistensial mohiyatini yuqorida nomlari tilga olingan adiblar asarlari orqali tahlil qilingan. Tadqiqotimizning asosiy vazifalaridan biri Ernest Hemingueyning asarlarida vertikal makonga murojaati va u orqali qahramonlarning ruhiy holati qay tarzda bayon etilganini ko‘rib chiqishdir. Bundan tashqari tadqiqotimizda jahon adabiyotining nodir asarlaridan ham foydalanildi. Ushbu tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, psixologik, sistem-struktur tahlil metodlariga murojaat qilindi.

Kalit so‘zlar: badiiy makon, gorizontaal makon, vertikal makon, yuqori makon, pastki makon, ekzistensiallik.

Аннотация. Основная цель нашего исследования — обратиться к понятию художественного пространства в литературоведении, объяснить его вертикальный тип и проанализировать это вертикальное пространство на примере рассказов Эрнеста Хемингуэя. В рамках нашего исследования мы проанализировали экзистенциальную сущность вертикального пространства и внутреннего мира героя через творчество вышеперечисленных писателей. Одной из основных целей нашего исследования является изучение использования вертикального пространства в произведениях Эрнеста Хемингуэя и того, как оно передает душевное состояние персонажей. Кроме того, в нашем исследовании использовались и редкие произведения мировой литературы. В исследовании использовались методы сравнительно-исторического, психологического и системно-структурного анализа.

Ключевые слова: художественное пространство, горизонтальное пространство, вертикальное пространство, верхнее пространство, нижнее пространство, экзистенциализм.

Abstract. The main goal of our study is to address the concept of artistic space in literary studies, explain its vertical type and analyze this vertical space using the examples of Ernest Hemingway’s works. As part of our study, we analyzed the existential essence of vertical space and the inner world of the hero through the works of the above-mentioned writers. One of the main goals of our study is to study the use of vertical space in the works of Ernest Hemingway and how it conveys the mental state of the characters. In addition, our study also used rare works of world literature. The study used the methods of comparative-historical, psychological and system-structural analysis.

Key words: artistic space, horizontal space, vertical space, upper space, lower space, existentialism.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Badiiy makon bu muallifning xayolot dunyosida shakllanib, asarda makoniy tushunchalar orqali namoyon bo‘ladigan obrazidir. Badiiy makon – bu badiiy asardagi bosh qahramonlar yashaydigan va harakatlanadigan, hamda shu orqali voqealar rivoji ham ilgari suriladigan davomiylik [Lotman Yu. 1:415]. Badiiy makon deganda zamonni ifodalash bilan bog‘liq bo‘lgan matndagi voqealar ketma-ketligini tashkil qilish usuli, shuningdek, berilgan asar makonining tasvirlari to‘plami tushunilishi mumkin. Adabiyotshunoslikda badiiy makonning bir necha turlari mavjud, masalan, ochiq-yopiq, yuqori-past, keng-tor, vertikal va gorizontal.

Jahon adabiyotida qissalarda makon nafaqat fizik joyni tasvirlashda, balki uning ramziy, falsafiy va psixologik o‘lchamlari orqali qahramonning ichki dunyosini, hayotiy kurashlarini va ekzistensial savollarini ifodalashda ham katta rol o‘ynaydi [Blanco M. 1:189]. Gorizontal va vertikal makonlar esa asarlar ichidagi markaziy mavzularni, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini va ijtimoiy munosabatlarni yoritishda muhim vositalar hisoblanadi. Qissalardagi makon ko‘pincha ko‘p qatlamli bo‘lib, turli ijtimoiy, ruhiy va ma’naviy o‘lchamlarni o‘z ichiga oladi. Qissalarda makonning qatlamlanishi asar ichidagi ijtimoiy sinflar, ichki kurashlar va hayotning turli fazilatlari o‘rtasidagi ziddiyatlarni ochib beradi. Bu qatlamlar asar mazmunini boyitadi va qahramonning o‘ziga xos pozitsiyasini ko‘rsatadi.

1. Tabiat va ijtimoiy makon

Tabiat (o‘rmonlar, cho‘llar, dengizlar, tog‘lar) va ijtimoiy makon (shahar, qishloq, uylar, jamiyatning turli qatlamlari) o‘rtasidagi farq ko‘p hollarda qahramonning ichki dunyosini aks ettirishda ishlatiladi. Tabiat makoni ko‘pincha qahramonning o‘zini anglash va yolg‘izlikka intilishi, ijtimoiy makon esa jamiyatning bosimi va uning to‘g‘risidagi fikrlarini ifodalaydi.

2. Psixologik va ma’naviy makon

Psixologik makon — bu qahramonning ichki olami, o‘zini anglash, ruhiy izlanishlar, g‘am-kudur va umidlar. Bu qatlamda qahramonning ichki ziddiyatlari, hayotning ma’nosini topish uchun qilgan izlanishlari va o‘zligi bilan kurashlari yoritiladi. Gorizontal va vertikal makonlar ushbu psixologik qatlamni kiritish uchun qulay vosita bo‘lib, masalan, ichki farqlarni ochish yoki kognitiv va ma’naviy yuksalishni tasvirlashda ishlatiladi.

Gorizontal makon dunyoning to‘rt tomoni (shimoliy, janubiy, g‘arbiy va sharqiy) yoki tomonlar ifodasi (o‘ng, chap, oldin, orqa)ni o‘z ichiga oladi [To‘rayeva B. 6:39]. Gorizontal makon adabiyotda odatda vaqt o‘rami yoki ijtimoiy aloqalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu turdagi makon qahramonning jamiyat bilan

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

munosabatlarini, ijtimoiy sinflar orasidagi farqlarni yoki uning kelajagi bilan bog‘lanishini tasvirlashda muhimdir. Gorizontal makon quyidagi o‘lchamlarda namoyon bo‘ladi:

➤ **Ijtimoiy makon.** Gorizontal makon o‘rtasida odamlarning yashash joylari, ishlash muhitlari va ular o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar ko‘rsatiladi. Masalan, shahar, qishloq, sanoat hududlari yoki urush maydonlari kabi makonlar qahramonning jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi. Shuningdek, bu makon ijtimoiy sinf, race yoki gender kabi ijtimoiy omillarning ta‘sirini ko‘rsatadi.

➤ **Vaqt va o‘tmish.** Gorizontal makon o‘tgan davrlar, tarixiy sharoitlar yoki davrlar o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatadi. Bu, ayniqsa, tarixiy romanlarda yoki ijtimoiy-siyosiy qissalarda o‘z aksini topadi, masalan, urush va tinchlik, isyon va totalitarizm o‘rtasidagi ziddiyatlar [Yaxyayeva, N. 8:266].

Vertikal makon tushunchasi badiiy asarda yuqori va pastki darajalarni, ruhiy va moddiy, ilohiy va dunyoviy qatlamlarning qarama-qarshiligini tasvirlashda ishlatiladi. Vertikal makon qahramonning ichki kechinmalari, ekzistensial izlanishlari va insoniy mohiyatini ochib beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Vertikal makon odatda yuqori va past ramzlari orqali ifodalanadi: *yuqori makon* - samoviylik, ilohiylik, ideal va ruhiy yuksaklikni anglatadi. U qahramonning ma‘naviy izlanishlarini, haqiqatni anglashga bo‘lgan intilishini ifodalaydi. *Pastki makon* - moddiylik, dunyoviylik, ma‘naviy inqiroz va xatolarni anglatadi. U qahramonning ichki to‘qnashuvlari va murakkab kechinmalarini aks ettiradi [Yaxyayeva, N. 7:490]. Ekzistensializm esa insonning mavjudlik mohiyatini anglashga qaratilgan falsafiy oqim bo‘lib, adabiyotda qahramonlarning ichki dunyosida chuqur aks etadi. Vertikal makon qahramonning o‘zligini anglash yo‘lida ma‘naviy yuksalish (ko‘tarilish) yoki tanazzul (pastlash) jarayonini ko‘rsatadi. Badiiy asarda qahramonning ichki dunyosi va vertikal makon o‘rtasidagi aloqalar quyidagilar orqali namoyon bo‘lishi mumkin:

❖ *Ichki konfliktlar va qarama-qarshiliklar:* Qahramon yuqori maqsadlarga erishish uchun pastki darajadagi ichki qo‘rquvlar, shubhalar va dunyoviy kechinmalar bilan kurashadi. Masalan, Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” asarida Raskolnikovning ruhiy azoblari va ma‘naviy qayta tug‘ilishi jarayoni vertikal makon konsepsiyasi orqali ifodalanadi.

❖ *Yuksalish va tanazzul dinamikasi:* Qahramonning ruhiy holati vertikal harakat (ko‘tarilish yoki qulash) orqali tasvirlanadi. Bu yuksalish qahramonning haqiqatni anglashga olib keladi, tanazzul esa ekzistensial bo‘shliqni anglatadi.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

❖ *O‘zlikni anglash va ekzistensial izlanishlar*: Vertikal makon qahramonning “Men kimman?” degan savolga javob izlash jarayonida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon insonning cheksiz ruhiy imkoniyatlarini va cheklangan dunyoviy mavjudligini aks ettiradi. Masalan:

Sharq adabiyotida – Navoiy asarlarida ruhiy va moddiy olamning vertikal tasviri seziladi. Xamsaning birinchi dostoni hisoblangan “Hayrat ul-abror” dostoni qahramonlarning ma’naviy yuksalishi va dunyoviy qiyinchiliklar bilan kurashi badiiy tarzda yoritilgan 20 maqolatdan iborat bo‘lib, har bir qismda insoniy fazilatlar, axloqiy yuksalish hamda jamiyatdagi muammolar ko‘tarilgan. Asarda ezgulik, adolat, qanoat va kamtarlik kabi insoniy fazilatlar tarannum etiladi. Navoiyning fikricha, kimki qanoatni o‘ziga kasb qilgan bo‘lsa, u eng boy insondir. Oltin, kumush va zebu ziynatlarni boylik deb bilmaslik kerak, balki haqiqiy boylik qanoat xazinasidir:

“Kimgaki ish bo‘ldi qanoat fani,
Bilki, ani qildi qanoat g‘ani” [Navoiy, A. 5].

Bundan tashqari, Navoiy adolatsizlik va zolim hukmdorlarni tanqid qiladi, insoniyatni mol-mulk va dunyo sevgisiga berilmaslikka chorlaydi. Sharq adabiyotida bu kabi mavzularga Navoiydan oldin yashab, ijod etgan Xusrav Dehlaviy va Nizomiy Ganjaviy singari mutafakkirlar ham murojaat qilishgan.

Jahon adabiyotida – Kafkaning “Evrilish” asarida vertikal makon insonning mavjudlikdagi izlanishlarini aks ettiradi. Qahramonning ichki dunyosi – ruhiy tanglik va ma’nosizlik qarama-qarshiligida gavdalanadi. Kafka asarida Gregor Zamzaning uyida bir xonada yotgan holda uning ichki ruhiy azoblari va o‘ziga bo‘lgan qarashlari gorizontal makonning o‘zgarganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Gregorning yuksalish va pastlikka bo‘lgan intilishi (masalan, uning qolgan hayotidagi ruhiy qulash) vertikal makon orqali tasvirlanadi. Asarda Gregorning hayoti ikki qavatli uyda kechadi. Uning xonasi yuqori qavatda joylashgan bo‘lib, dastlab u o‘zini oilasidan ajralganini his qilmaydi. Sababi u oila boquvchisi, hammaga kerakli inson edi. Biroq u hasharotga aylangach, hech kimga keraksiz bo‘lib qoladi, hattoki butunlay unutiladi. Vertikal makon bu yerda uning ijtimoiy va ruhiy holatlarini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi:

Pastga tushish – Gregor asta-sekin insoniy maqomidan mahrum bo‘lib, oilasining yukiga aylanadi. Bu jarayon uni jamiyatdagi qadrsizlanishining ramziy ifodasidir. **Yuqorida qolib ketish** – U oilasidan uzoqlashib, yuqori qavatga qamalgan holda yashaydi. Bu esa insonning mavjudlikdagi izlanishlari, jamiyatdan ajralishi va o‘zining kimligini anglash jarayonini ifodalaydi.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Oxirgi pasayish – Asarning oxirida Gregor vafot etadi va uning jasadi xizmatkor tomonidan pastga olib chiqib tashlanadi. Bu uning butunlay jamiyatdan chiqarib yuborilganini anglatadi.

Vertikal makon o'zining gorizontal tasvirlardan farqli o'laroq, ko'proq ruhiy va falsafiy o'lchamlarni ochib beradi. U, shuningdek, insonning tabiat bilan bo'lgan munosabatlarini yoki o'zini anglash yo'lini ham aks ettiradi. Vertikal makon asarda ko'pincha qahramonning o'zini anglash jarayonida ishlatiladi. Masalan, asar davomida qahramonning yuqoriga ko'tarilishi yoki pastga tushishi uning ichki kechinmalari va o'zligini anglash yo'lini ko'rsatadi. Qahramonning yuksalishi uning ma'naviy yuksalishini, qulash esa ruhiy tushkunlik yoki umidsizlikni bildiradi.

Vertikal makon tabiat bilan bog'langan holda ham ishlatiladi. Masalan, tog'lar va quyi dunyolar, osmonning yuksakligi va yerning pastligi qahramonning ma'naviy intilishlari va ichki izlanishlarini ramziy tarzda ko'rsatadi. Ushbu makon o'rtasidagi ziddiyat yoki uyg'unlik insonning hayotga bo'lgan qarashlarini aks ettiradi. Jahon adabiyotida qissalardagi vertikal va gorizontal makon tasvirlari asarning asosiy mavzulari va qahramonning ruhiy holatini aks ettirishda katta ahamiyatga ega. Gorizontal makon ko'proq jamiyat va vaqtni, ijtimoiy aloqalarni ko'rsatadi, vertikal makon esa qahramonning ichki dunyosi, yuksalish va qulash, ma'naviy izlanishlar va ekzistensial savollarni ifodalaydi. Ushbu ikki makonning uyg'un ishlatilishi asarni yanada chuqurroq, murakkabroq va ma'noli qiladi. Masalan, Ernest Hemingueyning ijodi ichki kechinmalar va insonning yashash ma'nosi borasidagi ekzistensial izlanishlarga boy. Uning asarlarida vertikal makon tushunchasi chuqur falsafiy va ramziy ma'no kasb etadi. Bu makon qahramonlarning ma'naviy kurashini, hayot va o'lim haqidagi fikrlarini va insonning chegaralanmagan imkoniyatlarini aks ettiradi. Vertikal makon Heminguey uslubining muhim jihati bo'lib, insonning ma'naviy va moddiy dunyosi o'rtasidagi qarama-qarshilikni yoritadi. Ushbu makon odatda ikki asosiy darajani qamrab oladi – yuqori va pastki makon. Yuqori makon ilohiylik, ma'naviy yuksaklik yoki hayotning yuksak ma'nosi bilan bog'liq bo'lib, qahramonlarning o'zini anglash yo'lidagi izlanishlarini aks ettiradi. Pastki makon esa moddiylik, ma'naviy qulash yoki hayotning muqarrar tugashi (o'lim) bilan bog'liq. Heminguey asarlarida pastki makon insonning ichki azoblari va hayotning noaniqligini tasvirlash uchun ishlatiladi.

Hemingueyning qahramonlari odatda ekzistensial, ya'ni mavjudlik bilan bog'liq masalalar bilan yuzlashadi: hayot va o'lim, yolg'izlik, jasorat va insonning

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

chegaralangan imkoniyatlari. Bunda vertikal makon qahramonlarning ichki dunyosi bilan o‘zaro uyg‘unlikda aks ettiriladi.

1. “Chol va dengiz” (The Old Man and the Sea)

Yuqori makon: Dengizning bepoyonligi va osmonga yaqinlashgan holati qahramon Santyagoning ruhiy yuksalishini ifodalaydi. Dengiz o‘zida cheksizlik va ilohiy ma‘noni mujassamlashtiradi, bu esa Santyagoning inson sifatida hayot mazmunini anglash yo‘lidagi kurashini ramziy qiladi.

Pastki makon: Dengiz tubida yashovchi yirtqich baliqlar yoki qahramonning kuchini yo‘qotishi hayotning noaniqligi va insonning zaifligini ko‘rsatadi. Santyagoning ekzistensial mohiyati uning bu kurashda mag‘lub bo‘lsa ham, o‘z ma‘naviyatini saqlab qolishida namoyon bo‘ladi [Heminguey, E. 2].

Ernest Hemingueyning ushbu asarida vertikal makon tasviri ramziy va falsafiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu makon inson va tabiat, inson va o‘zlik, inson va hayotiy kurash o‘rtasidagi murakkab aloqalarni ochib beradi. Vertikal makon “Chol va dengiz” asarida uch xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:



“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Bundan tashqari, vertikal makon “Chol va dengiz” asarida insonning ekzistensial savollari bilan uyg‘unlashadi:

- Dengiz tubi o‘lim va noma’lumlik ramzi sifatida talqin qilinadi.
- Osmon va dengiz yuzasi insonning hayotdagi yuksalish va pastlash, intilish va tushkunlik o‘rtasidagi holatini ifodalaydi.
- Baliq bilan bo‘lgan kurash jarayonida Santyago o‘zining chuqur ichki kuchini, qat’iyligini va tabiat oldidagi o‘zidagi o‘zida anglaydi.

Fikrlarimizga xulosa qiladigan bo‘lsak, “Chol va dengiz” asarida vertikal makon inson hayotining murakkabligini va uning tabiat qarshisidagi ekzistensial pozitsiyasini ramziy tarzda aks ettiradi. Dengizning chuqurligi va osmonning yuksakligi orqali Heminguey inson hayotidagi kurashning falsafiy va ma’naviy mazmunini tasvirlaydi. Santyago tabiat bilan kurash orqali o‘zining kuchini va zaifligini tan oladi, bu esa asarning umumiy ekzistensial mohiyatini yanada boyitadi.

2. “Afrikaning yashil tepaliklari” (1935) asari — adibning Afrikaga qilgan safari davomida orttirgan taassurotlari va mulohazalari bilan boyitilgan, avtobiografik ruhdagi nasriy asar. Ushbu asarda vertikal makon va qahramonning ichki dunyosining ekzistensial mohiyati o‘ziga xos tarzda aks ettirilgan.

Heminguey asarda tabiat tasvirlarini keng ko‘lamda qo‘llaydi. Afrikaning tepaliklari, tog‘lari va kengliklari o‘ziga xos vertikal makonni hosil qiladi. Ushbu vertikal makon insonning tabiatga nisbatan munosabatini, ichki kurashini va uning hayotiy yo‘nalishini ifoda etuvchi ramz sifatida talqin qilinadi. Qahramonlar tabiat bilan yuzma-yuz kelganlarida, bu makon ularga ekzistensial savollarni o‘rtaga tashlaydi: hayotning mohiyati, o‘limning yaqinligi va insonning tabiat oldidagi zaifligi [Heminguey, E. 3].

Masalan, tog‘lar insonning qanchalik kichik ekanligini va uning chegaralanganligini eslatib turadi. Bu vertikal makon insonning yuqoriga intilishini ham, tabiat va uning kattaligi oldida qabul qilish zaruratini ham bildiradi. Tepaliklarga qarash yoki ularga chiqish jarayoni, qahramonning ichki dunyosidagi chuqur o‘zgarishlar, o‘zlikni anglash va o‘z taqdirini qabul qilish bilan bog‘liq.

Hemingueyning asarida ichki dunyo inson hayoti va tabiatning birligi orqali tadqiq qilinadi. Qahramon o‘z hayotining mazmunini tabiat va ovchilik jarayonida izlaydi. Ov sahnalari qahramonning o‘zining zaifligini his qilishiga, lekin shu bilan birga kuchli ekanligini anglashiga ham imkon beradi. Ovchilik va tabiat bilan o‘zaro aloqa insonning ekzistensial holatini aks ettiradi: inson hayotning go‘zalligini anglagan bir paytda uning muqarrar o‘limga mahkum ekanligini ham qabul qiladi.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

“Afrikaning yashil tepaliklari” qissasida vertikal makon va qahramonning ichki dunyosi o‘zaro uyg‘unlikda ishlaydi. Vertikal makon tabiatning ulug‘vorligini va inson hayotining nozikligini ramziy ravishda aks ettirsa, qahramonning ichki kechinmalari uning ekzistensial mohiyatini ochib beradi. Bu esa Hemingueyning ijodida hayot va o‘limning murakkab, ammo bir-biriga bog‘liq ekanligini chuqur falsafiy tarzda tasvirlash imkonini beradi.

Xulosa. Heminguey asarlarida vertikal makon qahramonlarning ichki kechinmalari, hayot va o‘lim o‘rtasidagi kurashlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Uning qahramonlari yuqori ma‘naviy yuksalishga erishish uchun pastki makondagi sinovlardan o‘tadi. Ekzistensial mohiyat Hemingueyning sodda, lekin chuqur badiiy tasvir vositalari orqali hayotning ma‘nosini va insonning hayotdagi o‘rnini o‘quvchiga his etkazadi. Qahramon tabiat go‘zalligini kuzatar ekan, uning ichki dunyosida chuqur falsafiy mulohazalar paydo bo‘ladi. Bu mulohazalar o‘z-o‘zini anglash, yashashning haqiqiy ma‘nosini topish va o‘limni qabul qilish bilan bog‘liq. Hemingueyning minimalistik uslubi tufayli bu savollar o‘quvchiga bevosita aytilmaydi, balki asar mazmunidan bilvosita paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Blanxo, M. (1989). Adabiyot makoni. / Kirish qismi bilan tarjima qilingan. Enn Smok Nebraska Universiteti Press Linkoln. Amerika Qo‘shma Shtatlari, – 189.
2. Heminguey, E. (1986). Chol va dengiz. Qissa. Ruschadan Ibrohim G‘ofurov tarjimasini. – Toshkent.
3. Heminguey, E. (2006). Zeleniye xolmy Afriki = Green Hills of Africa / Ernest Xeminguey; Per. s angl. V. A. Xinkisa. — M.: Geografiz,— 160.
4. Heminguey, E. (2009). Starik i more. Perevod Ye. Golyshevoy i B. Izakova. Izdatelstvo: AST, AST Moskva.
5. Navoiy, A. (1483). “Hayrat ul-abror”. Xamsa.
<http://philosophy.niv.ru/doc/dictionary/encyclopedic/index.htm>
6. To‘rayeva, B.B. (2022). Zamonaviy romanlarda xronotop poetikasi monografiyasi. – Toshkent, – 36.
7. Yaxyayeva, N. (2024). Badiiy makon konsepsiyasining zamonaviy talqini. *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*, 490-493. <https://doi.org/10.2024/wsvr2m44>
8. Yaxyayeva, N. (2024). Badiiy makonning strukturasi va tasnifi. // O‘zbekistonda xorijiy tillar. 10-jild, № 2. — Toshkent, 266-272.
9. Лотман, Ю.М. Проблема художественного пространства в прозе Гоголя // Лотман Ю.М. Избранные статьи (в 3-х т.). - Таллин: Александра, 1993. - Т. I.- С.413-447